

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE OF BALĀĜAH****Salimakhon A. Rustamiy***Professor, Doctor of Philological Sciences**Department of Languages-1, Oriental University**Tashkent, Uzbekistan*salimarustamiy@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: philological sciences, balāġat, phrase, bayān, ma'āni, badi', development, «Miftah al-ulum».

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: The article notes that by the 12th–13th centuries, the science of science of balāġah was definitively shaped by Abu Yaqub Yusuf as-Sakkaki al-Khwarizmi (1160–1229), who dedicated the third part of his fundamental work Miftah al-Ulum (The Key to the Sciences) to this discipline. It also examines the preceding development of the theories of bayān, ma'āni, and badi', which are the core components of this science.

BALOG'AT ILMINING RIVOJLANISH TARIXIDAN**Salimaxon A. Rustamiy***Professor, filologiya fanlari doktori**Tillar-1 kafedrasi, Oriental universiteti*salimarustamiy@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: filologik fanlar, balāġat, ibora, bayān, ma'āni, badi', rivojlanish, «Miftah al-ulum».

Annotatsiya: Maqolada XII-XIII asrga kelib balog'at ilmini Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy Xorazmiy (1160-1229 m.) to'liq shakllantirib, «Miftohu-l-ulum» asarining uchinchi qismini shu ilmga bag'ishlagani, bunga qadar uning tarkibiy qismlari bo'lgan bayon, ma'oniylar va badi' ilmlari nazariyalari o'ziga xos ravishda rivojlanib kelgani yoritilgan.

ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ НАУКИ BALĀĜAH**Салимахон А. Рустамий***Профессор, доктор филологических наук*<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp>

Кафедра Языков-1, Университет Ориентал
salimarustamiy@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: филологические науки, *balāghat*, фраза, *bayān*, *ma'āni*, *badi'*, развитие, «Мифтах ал-улум».

Аннотация: В статье отмечается, что к XII–XIII векам наука *balāghah* была окончательно сформирована Абу Якубом Юсуфом ас-Саккаки ал-Хорезми (1160–1229 гг.), который посвятил этой дисциплине третью часть своего фундаментального труда «Мифтах ал-улум» («Ключ к наукам»). Также рассматривается предшествующий процесс развития теорий *bayān*, *ma'āni* и *badi'*, являющихся составными частями этой науки.

Kirish. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar ko'plab ilmlar qatori filologiya fanlarining nazariy asoslarini ishlab chiqish, mavjudlarini jamlab tugal holga keltirish kabi xizmatlari bilan jahon ilmu fan tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

XII-XIII asrga kelib adab ilmlari orasida til va adabiyot bilan bog'liq qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan balog'at ilmini Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy Xorazmiy (1160-1229 m.) to'liq shakllantirib, «Miftohu-l-ulum» asarining uchinchi qismini shu ilmga bag'ishladi (Rustamiy, 2024, p. 3755). Bunga qadar uning tarkibiy qismlari bo'lgan bayon, ma'oniyy va badi' ilmlari nazariyalari o'ziga xos ravishda rivojlanib kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada balog'at ilmining tarixi balog'atshunos olimlarning asarlari, balog'at ilmi tarkibi Abdulqohir Jurjoniyyning «Asroru-l-balog'a», Abu Yoqub Yusuf Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asarlari asosida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, komponent usullar vositasida tahlil qilindi.

Natijalar. Islomgacha davr arab og'zaki ijodida turli badiiy vositalardan juda keng foydalanib kelingan. Ana shu davrdanoq dastlabki adabiy til va badiiy tasvir qoidalari shakllana boshlagan. Bu haqda Abu Usmon Amr ibn Bahr Johiz o'zining «Al-bayon va-t-tabyin» asarida ma'lumot berib o'tgan.

Balog'at ilmining olimlari uni uch tarkibiy qismga ajratganlar. Bular: bayon, ma'oniyy, badi' ilmlari – so'z san'ati ilmi. Shulardan bayon ilmi haqida birinchi bor Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniy al-Basriyning (867 y. vaf. et.) «Majoz al-Qur'on» kitobida zikr etilgan. Abu Ubayda Qur'onda uchragan birinchi, ya'ni asl ma'nosidan boshqa ma'nolarda qo'llangan so'zlarni chuqur o'rganib chiqadi va ularni mazkur kitobiga jamlaydi. Bir qancha olimlar Abu Ubaydaga ergashib istiora va kinoya haqida risolalar yozganlar. Lekin ular abbosiylar davrining birinchi asrigacha bayon ilmini maxsus ajratmaganlar.

Ma'oniylar haqida Ja'far ibn Yahyo, Sahl ibn Horun kabi atoqli yozuvchi va notiqalar qisman gapirib o'tganlar. Bu haqda birinchi bor mavjud ma'lumotlarni bir kitob holiga keltirgan olim Abu Usmon al-Johiz (775-868)dir. Bu asarlar – «Al-bayon va-t-tabyin», «I'jazu-l-Qur'on» va b. Keyinchalik Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) Qur'on-i Karim tafsirlarida ushbu ilm takomiliga katta hissa qo'shgan. Johizga yetuk olimlardan Abu Abbos al-Mubarrad (826-898), yozuvchilardan Qudama ibn Ja'far ergashdilar (Awni, 1953, p. 7).

Badi' ilmi borasida birinchi bor maxsus asar yozgan kishi – abbosiylar halifasi olim Abdulloh ibn al-Mu'tazz ibn al-Mutavakkil al-Abbosiyydir (861-908). Ungacha Bashshar ibn Burd (696-783), Muslim ibn al-Valid (747-823), Abu Tammam (788-845) va boshqa shoirlar o'z she'rlarida badi' turlarini qo'llaganlar.

Ibn Mu'tazz badi' ilmining o'n yetti turini to'pladi. Abdulloh ibn Mu'tazz haqida Sakkokiy shunday deydi: «Bilgilki, badi'ning turlari ko'p. Uni ixtiro qilgan birinchi kishi ibn Mu'tazzdir». Ibn Mu'tazz «al-Badi'» kitobining muqaddimasida e'tirof etishicha, «badi'» atamasini u birinchi bo'lib qo'llamagan, lekin uning san'atlarini ilk bora tadqiq qilgan va bu haqda kitob (Mu'taz, zaza@alwarraq.com).

Ibn Mu'tazz o'z risolasining birinchi bobini istiora, ikkinchi bobini tajnis, uchinchi bobini mutobaqaga bag'ishlaydi va ularni «fununu-l-badi'», ya'ni «badi' san'atlar» deb ataydi. Boblardan so'ng kitob 274 hijriy yilda yozilgani va uni birinchi bor Ali bin Horun bin Yahyo bin Abu Mansur Munajjim ko'chirib yozgani zikr qilingan.

Keyinroq bu asarga Ibn Mu'tazz «mahosinu-l-kalom» deb atagan o'n uchta san'at turini kiritgan. Bu san'atlar shunday nomlangan: iltifot, i'tiroz, ruju', husnu-r-ruju', ta'kidu-l-madh bimo yushbihu az-zamma, tajohulu-l-orif, hazl yurodu bihi al-jadd, husnu-t-tazmin, ta'riz, kinoya, al-ifrot fi-s-sifa, husnu-t-tashbih, i'notu-sh-sho'ir nafsahu fi-l-qavofi va husnu-l-ibtidot. Safiy Hilliy (750 h.) o'zining «Sharhu-l-Kafiyati-l-badi'iyya» kitobida keltirishicha Qudama bin Ja'far (260-327 h.) yigirma tur san'atni jamlashga erishdi, shulardan yettitasi ibn Mu'tazznikiga mos keladi. Qolgan o'n uch tur ibn Mu'tazzning o'n yetti turi bilan birga o'ttiz turni tashkil qiladi (Mu'taz, zaza@alwarraq.com).

Keyinchalik Abu Hilol Askariy (395 h. v.e.) ularni o'ttiz yettitaga, ibn Rashiq Qirvoniyy (390-456 h.) oltinchi beshtaga, Tifoshiy (651 h. v.e.) yetmishtaga yetkazdi. Badi' san'atlar keng yoritilgan asarlardan biri Ibn Abu Isba'ning (585-654 h.) «at-Tahrir»i hisoblanadi, unda to'qsonta san'at turi keltirilgan. Ibn Munqiz o'zining «at-Tafri' fi-l-badi'» kitobiga yana beshta turni kiritgan bo'lsa, Safiyuddin Hilliy qirq beshta san'at qo'shdi. Shu bilan arab adabiyotida badi' san'atlar turi bir yuz qirqtaga yetkazildi.

Bayon, ma'oniylar va badi' ilmlari keyingi asrdagina boblar va fasllarga ajratildi.

Bayon, ma'oniyy va badi' ilmlarini birinchi bo'lib bob va fasllarga ajratishga bel bog'lagan kishi imom Abdulqohir Jurjoniyydir (471 h./1078 y. v.et.).

Jurjoniyy o'zidan oldingi fikrlarni ko'p jihatdan takomillashtirgan va o'z davrida ma'lum bo'lgan balog'at masalalarini bir asarga jamlay olgan, ularni tasniflagan. Jurjoniyy o'zining bu faoliyati bilan balog'at ilmining keyingi rivojiga munosib hissa qo'shgan. Jumladan, uning «Asroru-l-balog'a» (Jurjoniyy, 2002) asarida lafz va ma'no, tajnis, uning qismlari va turlari, istiora, tashbih va tamsil, istiora va tamsil orasidagi farq, tashbih va istiora orasidagi farq, majoz, aqliy majoz va lug'aviy majozga oid masalalar ko'rilgan.

Jurjoniyyning «Asroru-l-balog'a» asarida balog'at ilmining tarkibi tugal shaklga keltirilmagan bo'lsa-da, bu asar ungacha bo'lgan ko'pgina asarlardan farq qiladi.

Balog'at ilmi Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy o'zining «Miftohu-l-ulum» asarini yaratgunga qadar shu holda saqlandi. Sakkokiy o'zining bu asari bilan balog'at ilmini to'liq shakllantirdi (Awniy, H., 1953, p. 8). Uning o'zi bu haqda shunday yozadi: «Men o'z kitobimga tilshunoslik fanining, lug'atshunoslikdan tashqari, zarur bo'lgan sohalarini kiritdim. Ular quyidagilar: arab tili sarfi-nahvi hamda ma'oniyy va bayon ilmlaridir. Ma'oniyy va bayon haqidagi ilmlarni egallash uchun nazm va nasrni tahlil eta bilish kerakligini tushundim, ayni vaqtda, shoir aruz va qofiya ilmlarini bilishga muhtoj ekanligiga ishonch hosil qildim. Shu sababdan mazkur masalalarni mukammal yoritishga jazm etdim» (Ziyovuddinova, 2005, pp.178-179).

Sakkokiy o'zigacha bayon etilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi. Undan keyingi olimlarning barchasi shu qoidalarga asoslandilar. Keyingi asr balog'at olimlari ushbu ilmga aytarliq yangilik kiritmadilar. Ularning asarlariga sharh yozish va aytgan so'zlarini takrorlash bilan kifoyalanib keldilar (Awni, 1953, pp. 8; Krachkovsky, 1956, p. 57).

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, balog'at ilmini tarkib va tartib jihatdan bir asarga jamlanib, ilmiy jihatdan yetuk darajaga kelishi, dastlab Jurjoniyy, so'ngra Sakkokiyning benazir mehnatlari samarasidir.

Shuning uchun ham bu ilm mundarijasini Jurjoniyyning «Asroru-l-balog'a» (أسرار البلاغة) va Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» (Sakkokiy, 1937) (مفتاح العلوم) asarlari orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jurjoniyy asarida balog'at ilmining tarkibi tugal shaklga keltirilmagan bo'lsa-da, ungacha bo'lgan ko'pgina asarlardan farq qiladi. «Asroru-l-balog'a» «lafz va ma'no» (اللفظ والمعنى) deb nomlangan bo'lim bilan boshlanib, unda ma'oniyy ilmi xususida qisqacha bahs yuritiladi. So'ngra tajnis, tajnisning turlari, istiora, tashbih va tamsil haqida so'z ketadi. Uning tarkibiga o'nta fasl kiradi. Jumladan, tashbihning turlari va farqlari, tashbih va istiora orasidagi farq, haqiqat va majozning chegarasi, aqliy va lug'aviy majoz, majozning turlari kabi masalalar.

«Asroru-l-balogʻa» asarining qisqacha mundarijasi shulardan iborat boʻlib, undan bu davrda balogʻat ilmi shakllanish jarayonida ekani, aniq va ravshan ilmiy tasnifga yetib kelinmagani maʼlum boʻladi.

Balogʻat ilmi masalasida Abdulqohir Jurjoniyan soʻng Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy oʻzining «Miftohu-l-ʻulum» asarida oʻzigacha bayon etilgan maʼlumotlarni qayta koʻrib chiqdi va boblarni tartibga keltirdi.

Sakkokiy oʻz asarining «maʼoniy va bayon ilmlari haqidagi» qismida ungacha boʻlgan asarlarda tarqoq holda boʻlgan va balogʻatning asosini tashkil qiluvchi boʻlimlarni tartib bilan keltiradi va ularni «ilmu-l-maʼoniy», «ilmu-l-bayon» deb nomlaydi. Birinchi fasl – maʼoniy ilmi istak, soʻroq, buyruq, inkor, undalma haqida, ikkinchi fasl – bayon ilmi tarkibiga tashbih, majoz, istiora, kinoya masalalari kiritilgan.

Soʻngra Sakkokiy tilning latif va jozibali boʻlishiga xizmat qiluvchi badiiy vositalar – maʼnoviy sanʼat turlari tiboq, muqobala, mushokala, maroʻatu-n-nazir, muzovaja, laff va nashr, jamʼ, tafriq, taqsim, al-jamʼ maʼa-t-tafriq, al-jamʼ maʼa-t-taqsim, iyhom, tavjih, iltifot, lafziy sanʼatlardan tajnis, ishtiyoq, raddu-l-ʻajz ʻala-s-sadr, qalb, sajʼ, tarsiʼ turlari haqida bahs yuritadi.

Bu asardan keyin balogʻat ilmi haqida mustaqil asar yaratilmadi. M.G. Kuliyevaning fikricha (Kuliyeva, 1983, p. 153) Sakkokiy balogʻat ilmini «estetik tanqidiy aspekt»dan «mantiqiy grammatik yoʻnalish»ga olib oʻtdi.

Xulosa. Jurjoniyan va Sakkokiy asarlarining qisqacha mundarijasidan maʼlum boʻldiki, birinchi asar oʻzidan oldingilarini koʻp jihatdan takomillashtirgan va oʻz davrida maʼlum boʻlgan balogʻat masalalarini bir asarga jamlay olgan, ularni tasniflagan. Jurjoniyan oʻzining bu faoliyati bilan balogʻat ilmining keyingi rivojiga munosib hissa qoʻshgan. «Asroru-l-balogʻa»dan keyin yaratilgan «Miftohu-l-ʻulum»da balogʻat ilmi tarkib jihatdan toʻldirilgani, tasnifning chuqur ilmiy asosga egaligi bilan oldingilaridan tubdan farq qiladi va bu ilmning takomilga yetganidan darak beradi. Sakkokiyaning bu asari hanuzgacha balogʻat ilmining shoh asari boʻlib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Al-Jurjaniyan, Abd al-Qaher. (2002). Secrets of Rhetoric. Asrar al-balagʻa. – Beyrut - Lubnan. (in Arabic).
2. Al-Muʻtaz, Abd Allah. The Wonderful Book. Al-kitab al-badiʼ. zaza@alwarraq.com (in Arabic)
3. Al-Sakakiyan, Yusuf. (1937) Key to the Sciences. Miftah al-ulum. – Al-Qahira. (in Arabic)
4. Awni, Hamid. (1953). The Clear Approach to Balagah. Part One. Al-minhaj al-wadih ai-balagah. - Egypt. (in arabic).

5. Krachkovsky, I.Yu. (1956). Poetry as Defined by Arab Critics. Poeziya po opredeleniyu arabskix kritikov. Izbrannye sochineniya. T.2. -Moskva-Leningrad. (in Russian)
6. Kulieva, M. (1983). Issues in the Theory of Arabic Literature Based on As-Sakkaki's "Miftah al-Ulum". Voprosi teorii arabskoy literaturi na osnove «Miftax al-ulum» As-Sakkaki: Dis. ... kand. – Baku. (in Russian).
7. Rustamiy S. (2024). Key Terms and Definitions in Balāḡat. International Journal of Social Science And Human Research. Volume 07 Issue 06 June 2024. – Pp. 3755-3758. (in English).
8. Rustamiy S. Content of components of the science “balāḡat”. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 10. – P. 1332-1337. (in English).
9. Zagidullina, D. (2008). The influence of medieval Arabic and Persian science of balagah on Tatar literary criticism // Uchen. Zap. Kazan. Un-ta. Ser. Humanit. Nauki. Vliyaniye srednevekovoy arabskoy i persidskoy nauki balyagat na tatarskoye literaturovedeniye // Uchen. Zap. Kazan. Un-ta. Ser. Humanit. Nauki, T. 150, Kn. 8. – Kazan. (in Russian).
10. Ziyovuddinova, M. (2005). Yusuf as-Sakkaki and his work "Miftah al-'ulum". Yusuf as-Sakkakiy va uning «Miftoh al-ulum» asari // Sharq filologiya-sining tugun va yechimlari. –Toshkent. (in Uzbek).